

## EMPATIYA QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA OILANING O'RNI VA UNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xudoyazarova Nodira Shaydullayevna

Termiz davlat universiteti psixologiya kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11069689>

**Annotatsiya.** Mazkur maqola zamonaviy oilalarning shaxslararo munosabatida hamdardlik, bir-birini tushuna olish yani his-hayajoni, g'am-tashvishi, qiyinchiliklariga emotsional javob bera olish qobilyatini rivojlantirishga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** O'zini boshqalar o'rniga qo'ya olish, hamdardlik, qobilyat, muloqat, munosabat, e'tibor, ruhiy rag'batlantirsh, motivatsiya.

## THE ROLE OF THE FAMILY AND ITS PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN DEVELOPING THE ABILITY OF EMPATHY

**Abstract.** This article is devoted to the development of empathy, the ability to understand each other, that is, the ability to respond emotionally to feelings, worries, and difficulties in the interpersonal relations of modern families.

**Key words:** Empathy, empathy, ability, communication, attitude, attention, mental stimulation, motivation.

## РОЛЬ СЕМЬИ И ЕЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В РАЗВИТИИ СПОСОБНОСТИ ЭМПАТИИ

**Аннотация.** Данная статья посвящена развитию эмпатии, понимания друг друга, то есть способности эмоционально реагировать на чувства, переживания и трудности в межличностных отношениях современных семей.

**Ключевые слова:** Эмпатия, сопереживание, способность, общение, отношение, внимание, умственная стимуляция, мотивация.

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bunda esa albatta oilada sog'lom muhitni yarata olish lozim. Oilada sog'lom psixologik muhitning yaratilishida oila a'zolarining bir-birini tushuna olish yani his-hayajoni, g'am-tashvishi, qiyinchiliklariga emotsional javob bera olish qobilyatini rivojlantirishga alohida ahamiyatga ega.

Har bir o'zbek oilasiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri bu-oila a'zolarining bir-birini tushuna olish, turli vaziyatlarda bir-biriga ijtimoiy-psixologik ko'maklashish hisoblanadi.

Oilalarda patologik holatlar asosan ota-ona va farzand o'rtasida quydagi omillar asosida yani tarbiyaviy bilimlarning sayozligi, turli yosh davrlardagi psixologik o'zgarishlarning inobatga olinmasligi, muloqotning yetarli bo'lmashligi, e'tiborsizlik, ma'nan va ruhan rag'batlantirilmashlik hamda ularning dunyoqarshlari o'rtasidagi nomutonoshlik kabi ta'sirlar asosida yuzaga kelishi mumkin.

Oilalarda farzandga uni dunyoga kelgunicha bo'lgan vaqtda tarbiya borasidagi qarashlarni shakllantira borish lozim. Dastlab o'yin faoliyatidan boshlab maktab yoshiga yetgach ta'lim faoliyatiga o'tiladi. Ota-onalar farzandiga bo'lgan asosiy e'tiborini farzandlari endi maktabga chiqqan vaqt, ya'ni kichik maktab yoshi davrida qaratishi lozim. Ushbu davrda farzandga ota-ona tomonidan turli motivatsiyalar berib borilishi yani o'yin faoliyatidan o'qish faoliyatiga o'tish davrida bola ruhiyatida birmuncha inqirozlar kuzatiladi. Bunday vaqtda ota-ona tomonidan "sen maktabga borsang yangi do'stlar orttirasan", "o'qishni o'rganasan" va "eng muhimi maktabga borsang yozishni o'rganasan" kabi motivatsiyalar beriladi. Ushbu motivatsiyalar orqali bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, o'qishga bo'lgan ishonchi ham ijobiy tomonlarga o'zgaradi.

O'smirlik davrida boladagi ruhiy holat oila a'zolari tomonidan to'g'ri tahlil qilinishi lozim. Bunda shaxsda o'smirlik davridagi psixo-fizalogik o'zgarishlar kuzatiladi. Chunki har bir yosh davrida ya'ni kichik maktab yoshi, o'smirlik va o'spirinlik davrlarida bolalarda turli psixologik va biologik o'zgarishlar yuz beradi. Bunday vaqtda ota-onalar farzandlariga bo'lgan e'tiborini kuchaytirishi, ular bilan do'stona muloqotni shakllantirishi, ularning muommolarini, qiziqishlarini jon qulog'i bilan tinglashi va anglashi lozim. Bir so'z bilan aytganda o'smirlik davrida bola ota-ona nazorati ostida bo'lishi kerak. Ushbu davr kichiklikdan kattalikka "o'tish" davri hisoblanadi. O'tish davri har bir bolada o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Masalan bazi o'smirlar bu davrdan hech qanday o'zgarishsiz o'tsa, bazilari esa xarakter -xususiyatlari butkul o'zgaradi.

O'smir davrida bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda ham kattalarning yordami zarurdir. Ushbu yoshdagi bolalarda shaxsni baholash bo'yicha turli psixologik tadqiqotlar o'tkazilganda ularning o'ziga bo'lgan bahosi juda yuqori bo'lgan natijalar ko'rsatilgan.

Farzand tarbiyasida ota-onalar farzandlarining qiziqishlariga ko'proq e'tibor berishi, unda mavjud bo'lgan qobiliyatlarni yuzaga chiqarishga harakat qilishi kerak. Ayniqsa bu jarayonga o'spirinlik davrida ko'proq e'tibor berish zarur, chunki o'spirinlik davrida bolalarda kasb tanlash muammosi yuz beradi. Bunday paytda ota-onalar farzandining qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ularni kasbga yo'naltirishi kerak.

O'smirlik va o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlari solishtirilganda ular bir-biridan keskin farq qilishi kuzatiladi. O'smirlik davrida tashqi muhitga bolgan reaksiyasi tez bolishi, ayrim

o'smirlarda esa agressiya kuzatiladi. O'spirinlik davrida bolalar ancha bosiq, kengroq fikrlaydigan boladi.

Umumiy qilib olganda oilada bola tarbiyasida go'daklik davridan e'tibor qaratish lozim.

Ularni har tomonlama yetuk shaxs qilib voyaga yetkazishda me'yor tushunchasiga ham e'tibor berish kerak. Bolaga ortiqcha mehribonlik, uning har qanday istaklarini bajo keltirish, o'rinsiz maqtashlar, ya'ni "arzanda" qilib o'stirish ham noto'g'ri hisoblanadi. Yoki aksincha, bolani go'dakligidan qattiqqo'llik bilan tarbiyalash, tahqirlash, uning qiziqishlari va erkini mensimaslik unda qo'rqqoqlik juratsizlik, o'ziga ishonmaslikni keltirib chiqaradi. Bu hol uning tengqurlariga qoshilishiga halaqit beradi. Bunday bolalar katta jamoalar yoki omma oldida o'z fikrlarini bildira olmaydi, uning jamiyatga qoshilishi ya'ni ijtimoiylashuvi qiyin kechadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek yosh bolalarga birinchi tarbiya, undan keyin ta'lim beriladi.

Har ikkalasiga ham alohida parvarish lozim. Bilmagan narsalarini tushuntirib, ta'kidlaganimizdek qiziqishlariga asoslanib ularni kasb yoki hunarga yo'naltirishda ota-onalar va pedagoglarning hissasi kattadir. Aynan ma'lum bir yoshda bola o'z hissiyotlari va orzularini kattalar bilan baham ko'rishning yashirin davrini boshdan kechirib, aynab shu davrda bolaga e'tibor va hamdardlikka bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Endi u omma ichida o'zini qanday tutish va o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash borasidagi fikrlarga duch kela boshlaydi. Ota-onalar farzandlarini insonlar bilan munosabatga kirishishda erkin qo'ysagina uning ijtimoiy aloqaga kirishishi oson bo'ladi va u yetuk shaxs bo'lib yetishadi.

Xulosa qilib aytganda, oilada farzandlarni ruhiy qo'llab-quvvatlash, ularning fikrlarini hurmat qilish, iqtidor va qobilyatlarini inobatda olish, his-tuyg'ulari bilan o'rtoqlashish va ruhan rag'batlantirish orqali ularda g'am-tashvishni enga olish, qiyinchiliklariga emotsional javob bera olish kabi xususiyatlarni shaklantirgan bo'lamiz.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. M. INSONPARVARLIK, EZGULIK VA BUNYODKORLIK-MILLIY G'OYAMIZNING POYDEVORIDIR. T-2021
2. V.Karimova OILA PSIXOLOGIYASI darslik T-2007 yil
3. I.A.Karimov YUKSAK MA'NAVIYAT - YENGILMAS KUCH 2008 yil
4. Narkulov, X. I. (2023). INTELEKT VA TAFAKKURNING SHAXS
5. MA'NAVIY VA AXLOQIY RIVOJLANISHIDAGI O'RNI. *Educational*
6. *Research in Universal Sciences*, 2(16), 272-274.
7. KHUDOYNAZAROVA, N. (2023). FEELINGS OF FEAR IN WOMEN. *World*
8. *Bulletin of Social Sciences*, 29, 76-78.



9. Sharafullaeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ADULT PERIOD. *World Bulletin of Social Sciences*, 29, 49-51.
10. Xudoynazarova, N. (2022). O'SMIRLAR XULQ-ATVORIDA ALTRUIZM RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 1(B8), 1702-1704.
11. Choriyeva, S. A. (2023). O 'SMIRLARDAGI MUOMALA MADANIYATINING OILAVIY MUNOSABATLARDAGI O 'RNI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 988-991.
12. Abdullayeva, Z. I. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATION STYLE IN A TALENTED PERSON. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 302-305
13. Xudoynazarova, N. S. (2024). YOSHLAR RUHIYATIGA MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLARNING TA'SIRI VA UNING PSIXOLOGIK FENOMENLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(3), 363-365.
14. Ergashevna, N. G. (2023). Improving Educational Mastery Opportunities in Primary School.
15. Nurqulova, G. (2023). ACCENTUATION FOR TEENAGERS. *Modern Science and Research*, 2(6), 274-276.